

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATGA KIRISHISH
MADANIYATINI TARKIB TOPTIRISH.**

Muradova Maftuna Komilovna

Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: maftunahonmuradova@gmail.com

ORCID: 0009-0009-5880-4961(oid kod elektron pochtdan olinadi)

Telefon raqami. +99894-115-85-72

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda partisipativlik, bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabatga kirishish madaniyatini tarkib toptirish mazmuni ochib berilgan. Shaxslararo munosabatga kirishish jarayoni muloqot, kommunikatsiya, empatiya va refleksiya kabi tarkibiy asoslari va uning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Partisipatiya, shaxslararo munosabatga kirishish madaniyati, kommunikatsiya, empatiya va refleksiya, psixo-emotsional holatlar, shaxsiy rivojlanish kasbiy muloqot.

**ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ.**

Аннотация. В данной статье раскрывается содержание участия в подготовке будущих учителей, формирование культуры межличностного общения у будущих учителей. Приводится описание процесса межличностного общения, включающего диалог, коммуникацию, эмпатию и рефлексию, а также его структурные основы и значение.

Ключевые слова: Участие, культура межличностного общения, коммуникация, эмпатия и рефлексия, психоэмоциональные состояния, личностное развитие, профессиональная коммуникация.

**FORMING A CULTURE OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN FUTURE
TEACHERS.**

Abstract. This article reveals the content of participation in the training of future teachers, the formation of a culture of interpersonal communication in future teachers. The process of interpersonal communication, such as dialogue, communication, empathy and reflection, and its structural foundations and its importance are given.

Keywords: Participation, culture of interpersonal communication, communication, empathy and reflection, psycho-emotional states, personal development, professional communication.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Endilikda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qila oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilmoqda. Shu bois ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylandi. Ushbu yondashuvlar

ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Partisipativ kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan shaxslararo munosabatga kirishish jarayoni muloqot, kommunikatsiya, empatiya va refleksiya kabi tarkibiy asoslarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning muloqoti o'zida ikkita qarama-qarshi tendensiyani aks ettiradi: bir tomondan hamkorlik, integratsiya, ikkinchi jihatdan raqobat, differentsiatsiya [5, 280b].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. D.Lyuis va I.Ya.Lernerlarning fikrlariga ko'ra shaxslararo munosabat uchta asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, monologik – subyekt fikrining yakka tartibda bayon etishi. Bu o'rinda subyekt fikri muloqotga kirishuvchining fikriga nisbatan ustunlik qiladi; dialogik muloqotda munosabatga kirishuvchi har ikkala shaxs teng aloqaga kirishadilar; polilogik, ko'pyoqlama muloqot bir necha sub'ekt o'rtasida bo'ladigan jarayon hisoblanadi [2, 89b]. Demak, shaxslararo munosabat keng qamrovli jarayon bo'lib, munosabat ishtirokchilarining ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsad va ijtimoiy ideallari mazmunini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sanaladi.

F.O.Mirzayeva tadqiqotlarida shaxslararo munosabat madaniyatiga quyidagicha ta'rif beradi: “bo'lajak pedagogni kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq, shaxslararo o'zaro hamkorlikdagi faoliyat jarayonida talabaga o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lish, bir-birini tushunish, shaxsga nisbatan diplomatik ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir” [3, 28b].

Yuqorida keltirilgan tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, shaxslararo munosabatlar turli mazmun va shakllarga ega bo'lib, o'zaro hamkorlik, tenglik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hurmatga asoslangan muloqot, shaxsga ijobiy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini anglatadi.

Partisipativ faoliyat o'z mazmuniga ko'ra shaxslararo munosabatlarni taqozo etib, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish ehtiyojining natijasi o'laroq o'zaro hamkorlik va kommunikativ xususiyatni ifodalaydi.

M.Maxsudovanning “Muloqot psixologiyasi” nomli o'quv qo'llanmasida muloqot quyidagicha izohlanadi: Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi [1, 5b].

Muloqotning asosiy jihatlaridan biri kommunikativlik bo'lib, o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab oladi. Yu.V.Taratuxina muloqotni ma'lumot almashishning o'ziga xos akti, hissiy va intellektual tarkibni uzatish jarayoni sifatida belgilaydi [6, 462b].

Partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda kommunikativ jarayonning samarali amalga oshishi muhim hisoblanib, mazkur jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olishni taqozo etadi. V.Shepel kommunikativ jarayonga salbiy ta'sir etuvchi oltita asosiy to'siqlarini (baryer) belgilab beradi:

- muloqot jarayonida muhitning noqulayligi;
- tinglovchining boshqa masalalar bo'yicha tashvishlari;
- boshqalarning fikrlarini kutish, stereotip va ambitsiyalar;
- kommunikator va qabul qiluvchining so'z boyligidagi sezilarli farq;

- muloqot jarayonida kommunikator tomonidan tinglovchining kasbiy sohasiga qobiliyatsiz kirib borilishi;
- kommunikator imijining o'ziga mos kelmasligi [8, 237b].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida bayon etilgan birgalikdagi faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar shaxslararo aloqalarning asosiy komponenti bo'lgan empatik munosabatning qaror topishiga, o'zaro tushunmovchiliklar va noaniqliklarni yuzaga keltirishi bilan tavsiflanadi.

Shaxslararo munosabatlarda empatiya quyidagicha namoyon bo'ladi: 1) muloqot jarayonida kommunikativ, tartibga solish, emotsional, ijtimoiy-pertseptiv vazifalarni bajaradi; 2) empatiya suhbatdoshlarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi, stress jarayonlarini yengillashtiradi, subyektga vaziyatni boshqarishga yordam beradi, o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi; 3) empatiya obyektini tasdiqlash, o'zini o'zi namoyon etish (ochiqlik), boshqalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy-shaxsiy zo'riqlashlarni yengillashtirishga yordam beradi; 4) empatiyaning yuqori darajasi shaxsning tajovuzkorligini cheklashga xizmat qiladi [4, 43b]. Demak, empatiya shaxslararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari, o'zaro hamdardlikning qaror topishi, qo'llab-quvvatlash, o'zaro munosabatlarda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlaydi. Bu esa, partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida birgalikdagi o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Shaxslararo munosabat madaniyatini tarkib toptirish shaxsning o'z-o'zini tahlil qila olishi, ijtimoiy munosabatlarda subyektlarning his-tuyg'ulari, emotsiyalarining mohiyatini anglay olishidan iborat refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishni ham talab etadi.

Refleksiya (lotincha "reflexio" – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib etishi, faxmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishga doir alohida faoliyat; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash [9, 14b].

Refleksiya – shunchaki subyektning o'zini o'zi bilishi yoki tushunishi emas, balki boshqalar tomonidan "refleksiyalanuvchini" [7, 590 b] qanday bilishi va uning shaxsiy xususiyatlarini, emotsional reaksiyalarini va kognitiv tasavvurlarini ham tushunishini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, bir qator mualliflarning asarlarida (Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ahlidinov va I.Majidov) refleksiyaning quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi:

- refleksiya samarali fikrlashning muhim mexanizmi;
- yuz berayotgan hodisani tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (vaziyat va harakatlarni baholash, vazifalarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi);
- vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqalarning o'zini o'zi tahlil qilishi, o'z holati hamda harakatlarini faol o'ylab ko'rishidan iborat jarayon.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, refleksiya shaxsning o'z-o'zini anglashi, boshqalarni tushuna olishi, individ hamda boshqalarning o'zini o'zi tahlil qilishi hamda samarali fikrlashning muhim mexanizmi hisoblandi. Ushbu jihatdan, shaxslararo munosabat madaniyatini tarkib toptirishning asosiy va muhim tarkibiy qismi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. — B.5.
2. Льюис Д., Лернер И.Я. Формирование и развитие профессионалов в условиях современного образовательного пространства. — М.: Издательство университета Дружба народов, 2006. — 89 с.
3. Мирзаева Ф.О. Бўлажак ўқитувчиларда шахслараро муносабат маданиятини ривожлантириш. Дисс. пед. фан. бўйича фал. док (PhD). — Наманган, 2020. — Б.28.
4. Ожогина Яна Дмитриевна. Роль эмпатии в межличностном общении и взаимодействии // Наука через призму времени. — 2020. — №10 (43).
5. Слостенин В.А. Социокультурные проблемы инновационной деятельности учителя. М.: Издательский Дом МАГИСТР-ПРЕСС, 2000. — 280 с.
6. Таратухина, Ю. В. Деловые и межкультурные коммуникации : учеб. пособ. / Ю. В. Таратухина. — М.: Юрайт, 2016. — 462 с.
7. Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова. — 5-е изд. — М.: Политиздат, 1991. — 590 с.
8. Шепель, В. М. Настольная книга бизнесмена и менеджера: управленческая гуманитарология / В. М. Шепель. — М. : Финансы и статистика, 1992. — 237 с.
9. Эркабоева Н., Усмонбоева М., Иргашова М., Хужаназарова Н. Педагогик маҳорат: схема ва расмларда: Методик қўлланма. — Тошкент: ТДПУ, 2012. — Б. 14.